



JIZZAX VILOYATI TOPONIMIYASINING O'RGANILISH TARIXI

Vahobova Maftuna Abbosovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Aniq va Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (Geografiya)
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyati joy nomlarining (toponimlarining) tarix davomida qanday o'rganilganligi haqida ma'lumot beriladi. Qadimdan mavjud bo'lgan shahar va qishloqlar nomlari, ularning qayerdan kelib chiqqani, qanday ma'no anglatishi va vaqt o'tishi bilan qanday o'zgargani tushunarli tarzda bayon etiladi. Maqolada arxeologlar, tarixchilar va tilshunoslarning Jizzax toponimiyasiga oid tadqiqotlari, shuningdek qadimgi arab, fors va turkiy manbalarda uchraydigan ma'lumotlar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Jizzax joy nomlarining mintaqa tarixi, aholisi va tabiiy sharoiti bilan qanday bog'liqligini oddiy va ravon tarzda tushuntirib beradi.

Kalit so'zlar: Jizzax, Toponimiya, geografik nomlar, Dizak, Buyuk Ipak yo'li, arxeologik tadqiqotlar, tarixiy manbalar, shahar tarixi.

Аннотация: В данной статье проводится анализ истории изучения топонимов Джизакской области на основе комплексных научных источников. Рассматриваются археологические данные, исторические письменные источники — древние арабские, персидские и тюркские тексты, а также современные топонимические исследования. Особое внимание уделяется этимологии названий городов и сел, природно-географическим и этническим факторам, оказавшим влияние на их формирование. Статья раскрывает историко-культурное значение топонимов Джизакского региона и анализирует их роль в изучении исторического развития территории и процессов расселения населения.

Ключевые слова: Джизак, топонимия, географические названия, джизак, Великий Шелковый путь, археологические исследования, исторические источники, история города

Annotation: This article analyzes the history of studying the toponyms of the Jizzakh region based on a wide range of scientific sources. It examines archaeological findings, historical written records - including ancient Arabic, Persian, and Turkic texts - as well as modern toponymic research. Special attention is given to the etymology of settlement names and the natural-geographical and ethnic factors that influenced their formation. The article highlights the historical and cultural significance of Jizzakh toponyms and evaluates their role in understanding the region's historical development and population settlement processes.

Keywords: Jizzakh, Toponymy, geographical names, Dizak, Great Silk Road, archaeological research, historical sources, city history

KIRISH.

Bugungi kunda geografik nomlar, ularning mazmun mohiyatini o'rganish davlat darajasigacha ko'tarilgan. Bu nomlar qayta ko'rib chiqilmoqda. Jumladan geografik



obyektlarning nomlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 12.10.2011 yildagi O'RQ-303-sonli. Bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2011-yil 26avgustda ma'qullangan. Ushbu qonun 24 ta moddadan iborat hisoblanadi[1].

Geografik obyektlarning har biri o'ziga xos nomga ega bo'lib, ularning ayrimlari yaqinda, boshqalari esa uzoq tarixiy davrlarda shakllangan. Toponimlarning paydo bo'lishi ma'lum hudud va davrdagi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgani uchun ularga hududiylik va tarixiylik xosdir.

Har bir nomning mazmun-mohiyatini aniqlash uchun uning yuzaga kelgan davri, hudud tarixi hamda nomlashga asos bo'lgan tabiiy-geografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va lingvistik omillarni chuqur o'rganish zarur. Ana shundagina toponimning haqiqiy ma'nosi va tarixiy ildizlari ochiladi. Kundalik hayotni joy nomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi; har bir inson o'z yashab turgan hudud — mahalla, qishloq yoki shahar nomining kelib chiqishi, uning ma'nosi va kimlar tomonidan berilganligini bilishga intiladi. Jamiyatning jadal rivojlanishi hamda xalqlar va davlatlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishi geografik nomlarsiz tasavvur etib bo'lmaydigan tizimni shakllantirib, toponimik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishni taqozo etmoqda.

Mustaqillikdan keyingi izchil iqtisodiy islohotlar va xalqaro hamkorlikning kuchayishi joy nomlari bilan bog'liq masalalarni o'rganishni dolzarb ilmiy muammoga aylantirdi. Geografik nomlar ko'p qirrali axborot manbai bo'lib, ular hudud, tarix va jamiyat haqida muhim ma'lumot beradi hamda eng asosiy ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biri — adreslik funksiyasini bajaradi.

Respublikamizning barcha hududlarida toponimlar turli darajada o'rganilgan va o'rganib kelinmoqda. Jumladan biz Jizzax viloyati toponimlariga biroz to'xtalib o'tamiz. Jizzax qal'a shahri Nurota va Turkiston tizmasini ajratib turuvchi, kengligi 120–130 metrga teng Ilono'tti (Temur darvozasi) darasining shimoliy qismida, Sangzor vodiysida shakllangan qadimiy shahardir.

Sharqni G'arb bilan bog'lovchi qadimiy Buyuk Ipak yo'lining aynan Ilono'tti darasidan o'tishi shahar mavqeining rivojlanishi va savdo markaziga aylanishiga sabab bo'lgan. XIX–XX asrlarda barpo etilgan Krasnovodsk–Toshkent temir yo'li va Katta O'zbekiston traktining Jizzax orqali o'tishi shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tarixni o'rganishning ahamiyatini ta'kidlab: "Tarixga murojaat qilarkanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini yodda tutishimiz kerak.

Xotirasiz barkamol shaxs bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"[2] deb ta'kidlagani bejiz emas. 1996 yil 26 oktabrda Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining sessiyasida so'zlagan nutqida u shunday ta'kidladi: "Jizzax ikki ming yildan ortiq tarixga va go'zal tabiatga ega qadimiy hudud hisoblanadi. Shu yerda O'zbekiston xalqining ko'plab asli farzandlari tarbiya topgan, o'z fidoyiligi bilan el-yurtimiz obrosini oshirgan va tarixda pok nomlarini qoldirgan."[3] deb ta'kidlab mutaxassislarni Jizzax shahrining tarixiy merosini chuqur va tizimli o'rganishga chaqirgan.



Ushbu ta'lim va tadqiqotlar xalq xotirasini saqlash hamda hududning tarixiy ahamiyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Jizzax shahri O'rta Osiyodagi qadimiy markazlardan biri bo'lib, shaharning mavjudligi ilk bor VII asrga oid manbalarda qayd etilgan. Arab istilosidan avval Ustrushona mintaqasining eng yirik shaharlaridan biri hisoblangan. Yunon solnomachilari Kiropol va Gazo shaharlarini alohida tilga olgan bo'lsa, arxeologlar Gazo shahrini Samarqand va Toshkent oralig'ida joylashgan qadimiy Jizzax bilan bog'laydilar.

Zardushtiyarning muqaddas kitobi "Avesto"da Jizzaxning arablar istilosidan ancha avval mavjud bo'lgan qadimiy shahar ekani qayd etiladi. Manbada Baqtriya hududida mingta shahar mavjudligi, ulardan biri sifatida "Dizak" nomi tilga olingani Jizzaxning qadimiy tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Shahar dastlab kichik qal'a sifatida bir necha qadimiy karvon yo'llarining tutashgan hududida vujudga kelgan. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hududdagi ilk shahar markazi hozirgi Jizzax shahrining sharqiy qismida joylashgan Kaliyatepa hududida

miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllangan. Yozma manbalarda Jizzax ilk bor islom dunyosi olimlari va sayyoxlari — Muqaddasiy hamda Yoqut Xamaviy asarlarida Ustrushonaning Faqnon viloyatidagi shahar sifatida tilga olingan. IX– X asrlarda shahar Somoniylar, XI–XIII asrlarda Qoraxoniylar, XIV–XV asrlarda Temuriylar, keyinchalik esa Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan.

Tarix davomida Jizzax bir necha marta inqirozga uchragan, ammo har safar qayta tiklangan. Amir Temur va Temuriylar davrida shahar savdo-sotiq va strategik ahamiyat kasb etib, obodonlashgan markaz sifatida rivojlanishini davom ettirgan.[5]

XIX asrning 60-yillarida, Rossiya istilosidan oldin, Jizzax (O'rda) 100 gektarga yaqin maydonni egallagan, ikki qator mudofaa devorlariga ega, Buxoro amirligi tasarrufidagi hokimlik markazi va harbiylashgan qal'a-shahar hisoblangan. Istilodan so'ng u Turkiston general-gubernatorligiga qo'shilib, yangi tashkil etilgan Jizzax uyezdining markaziga aylangan. Jizzax shahri ko'plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Yunon-Rim tarixchilari — Gerodot, Strabon, Ksenafont, Arrian — hamda arab muarrixlari, jumladan Xofiz-Tarobiy, ibn Havkal, ibn Xurdodbek, Istaxriy, ibn Babuta, Yokut, Hamaviy, ibn Arabshoh, Muhammad Solih, Xofiz Tanish, Hamidulla Kazviniiy, Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa olimlar asarlarida shaharning tarixi, aholining urf-odatlarini, diniy va madaniy hayoti batafsil yoritilgan.

Jizzaxning tarixiy va ijtimoiy hayotiga oid muhim ma'lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham o'z aksini topgan. Asarda muallif Jizzax, Zomin, Pishator, Ravot va Xo'jandda bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Bobur 1501 yilda Shayboniixon bilan bo'lgan to'qnashuvdan so'ng Andijonga qaytishda Jizzax hududidan o'tganini tasvirlaydi. U o'z qaydlarida Ilono'tti darasida tunab, mahalliy aholi taqdim etgan oziq-ovqatlar, xususan, go'sht

mahsulotlari va poliz ne'matlarining arzonligi hamda mo'l-ko'lligi haqida so'z yuritadi.

Boburning tasvirlariga ko'ra, o'sha davrda Jizzax chorvachilik, bog'dorchilik va polizchilik mahsulotlariga boy hudud bo'lgan. Shuningdek, u bu yer aholisi mehmondo'stligi, tinchligi va iqtisodiy farovonligini alohida qayd etadi. Bobur keltirgan ushbu ma'lumotlar XVI asr boshlarida Jizzaxning iqtisodiy hayoti, aholining turmush



darajasi va hududning ijtimoiy muhitidan dalolat beradi. Jizzax shahrining kelib chiqishi va toponimi haqida xalq orasida turli afsona va rivoyatlar

mavjud. Ulardan birida hozirgi shahar o'rnini qadimda Uchtepa cho'liga tutash bo'lgan zich qamishzor sifatida tasvirlanadi. Rivoyatga ko'ra, Sharq mamlakatlariga qo'shin tortgan Buxoro xoni ushbu hududda qo'shiniga dam bergan va a'yonlaridan biri qamishzor oralab yurganda bir xumcha oltin topgan. Ertasi kuni u o'zini noxush his qilayotganini bildirib shu yerda qolishni so'ragan. Oradan yillar o'tib, janglardan charchab qaytayotgan xon qo'shinlari qamishzor o'rnida bunyod etilgan mustahkam qal'aga duch kelishadi. Xonning o'sha a'yon qal'a darvozasi oldida uni katta hurmat bilan kutib olgan va topgan oltinlar hisobiga qal'ani qurdirganini aytgan.

Rivoyatning davomida xon uning xatosini kechirib, "sen men bergan tuzimni oqlading" deya, mazkur qal'aga "Tuzihok" nomi berilganligi ta'kidlanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor F. Boynazarov "O'rta Osiyoning antik davri" asarida yunon tarixchisi Arrianning "Iskandar yurishi" nomli kitobida Jizzax shahri "Gazo" nomi bilan tilga olinganini qayd etadi. Shuningdek, fransuz tadqiqotchisi G. I. Dreyzer ham bir asr avval chop etilgan "Ellinizm tarixi — Makedoniylar tarixi" asarida Jizzaxni "Gazo" deb ataydi. Tarixchi olimlar K. F. Buryakov, A. A. Gritsina va B. D. Kochnevlarning "Drevniy Zaamin" nomli tadqiqotida ham Gazo toponimi hozirgi Jizzax shahri bilan bog'lab ko'rsatiladi.[4] O'zbek sharqshunoslari va zamondosh olimlar — Ya. G'ulomov, A. Mukhammadjonov, X. Ziyoyev, N. Ne'matov, S. Anorboev, M. Pardaev, X. Mukhammadov, A. Berdimurodov, M. Isokov, N. Nemtseva, S. Nishonov, U. Nosirov, Xaydarov va boshqalar — monografiya, risola va ilmiy maqolalarida shahar tarixi, madaniyati hamda xalq turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlar taqdim etganlar.

Jizzax toponimining kelib chiqishi haqida turli olimlar tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu nomning qadimgi shakli "Dizak" bo'lib, u mustahkamlangan manzil yoki kichik qal'ani anglatadi. Professor Tura Nafasov "Dizak" atamasining etimologiyasini tahlil qilib, uning asosini sug'd tilidagi diz — "qal'a" so'zi tashkil qilishini ta'kidlaydi. "Diz" so'ziga kichraytirish ma'nosini beruvchi "-ak" qo'shimchasi qo'shilishi natijasida "Dizak" — "kichik qal'a" yoki "qo'rg'oncha" ma'nosini bildiruvchi shakl yuzaga kelgan. IX–XIII asrlarga oid tarixiy manbalarda "diz" komponenti bilan yasalgan toponimlar, jumladan, Bardiza, Tushkadiza, Sangdiza, Chishrdiza kabi joy nomlari keng uchraydi.

Bu esa Jizzax nomining qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi.[4] Mustaqillik yillarida Jizzax toponimlari tizimli tarzda o'rganildi. Qadimiy va zamonaviy nomlar tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi va arxiv materiallari asosida tahlil qilindi. Natijada: Toponimlarning tarixiy ildizlari va etimologiyasi aniqlanib, ilmiy atlaslar va maqolalarda yoritildi. Hududiy nomlar, karvon yo'llari, qal'alar, suv manbalari bilan bog'liq toponimlar tasniflandi. Rivoyatlar, afsonalar va xalq xotirasi yig'ilib, hududning madaniy merosi saqlab qolindi. Jizzax mintaqasi toponimiyasi ilmiy tadqiqotlar orqali qadimiy tarixiy ildizlari, geografik va madaniy ahamiyati bilan yoritilgan. Shahar va hudud nomlari, ularning kelib chiqishi va mazmun-mohiyati nafaqat hududning ijtimoiy, iqtisodiy va



madaniy rivojini, balki xalq xotirasi va tarixiy merosini aks ettiradi. Arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar va xalq ogʻzaki rivoyatlari orqali Jizzaxning miloddan avvalgi III–II asrlardan boshlab rivojlangan qadimiy markaz ekanligi aniqlandi. Yunon-Rim tarixchilari, arab muarrixlari va mahalliy manbalar shaharning strategik va savdo markazi sifatida ahamiyatini tasdiqlaydi. Mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida hududiy nomlarning tarixiy ildizlari, etimologiyasi va madaniy meros bilan bogʻliqligi tizimli tarzda oʻrganildi. Shu bilan birga, Jizzax toponimlari hududni identifikatsiya qilish, turizmni rivojlantirish, madaniy merosni saqlash va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida qoʻllanilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Jizzax mintaqasi toponimiyasining oʻrganilishi nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlashga, balki hududning ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga ham xizmat qiladigan muhim ilmiy yoʻnalishdir. Mustaqillik davrida erishilgan natijalar bu sohaning dolzarbligini va istiqbolli rivojlanishini yaqqol koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. LexUz on-line sayti
2. Karimov.I.A.Oʻzbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.1-jild – Toshkent.: <Oʻzbekiston>,1996 80-bet
3. Karimov.I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. 8-jild –Toshkent.: <Oʻzbekiston> 2000,193-bet
4. Haydarov.H Usmonov.K Jizzax tarixi Toshkent. 2009
5. Hakimov.Q.M Kartadagi soʻz Toshkent. 2019.-54 b